ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti



№9(4)
2026

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Elektron nashr. 236 sahifa,
25-sentyabr, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:
Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI
Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Raxmonova Z. A. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:
Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:
Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician
Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician
Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor
Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor
Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)
Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)
Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)
Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)
Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)
Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)
Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor
Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor
Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers "Yangi O'zbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor
Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)
Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor
Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service
Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor
Rakhmonova Z.A. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)
Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor
Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics
Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region
Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences
Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
• Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
• Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)
Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
• Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
• Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA CONTENTS СОДЕРЖАНИЕ

MUNDARIJA

Academic and Translingual Competence as an Integrative Construct in Higher Education: a Theoretical Framework 10
Davronova Fotima Pirnazarovna

Ovqatlanish xulq-atvori buzilgan bemorlarning emotsional va shaxslilik xususiyatlarining klinik-psixologik tahlili 14
Abdumutalibova Mag'firat Mirodil qizi

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metakognitiv kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan metodik tizim modeli 18
Melliyeva Dilfuza O'ralovna

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining 5K kompetensiyalarini baholash mezonlari va indikatorlari 24
Himoyeva Sarvarbegim Jamilovna, Qodirov Zayniddin Zaripovich

Bo'lajak pedagoglarda stressli vaziyatlarda xulq-atvor xususiyatlarini tadqiq etishning psixodiagnostik asoslari 29
Olimova Firuza Aslonovna

Developing the Skill of Evaluating the Reliability of Information Sources in Teaching English 35
Sherimbetova Nasiba Ravshanbek kizi

Tarmoq texnologiyalari fanida sun'iy intellekt asosidagi web-platformaning didaktik imkoniyatlari 42
Yuldashev Shadiyor Shuxrat o'g'li

Maxsus ta'lim ehtiyojiga ega o'quvchilarning ijtimoiy-psixologik rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda sun'iy intellekt imkoniyatlari 48
Abdujabborova Dildora Saidmurot qizi

Pedagogik jarayonlar davomida talaba-yoshlar egallagan faol fuqarolikning ijtimoiy-madaniy ahamiyati 56
Xabibulla Muratov Abduqodirovich

Maktabgacha tayyorlov yoshdagi bolalarda atrof muhitga munosabatini shakllantirishning zamonaviy usullari 65
Umarova Dildora Nizom qizi

Maktabgacha yoshdagi bolalarning obrazli va bog'lanishli nutqini rivojlantirish hamda nutqiy qiyinchiliklarni erta aniqlashning pedagogik-psixologik asoslari 70
Axmedova Muyassar Xadimatovna, Maqsudboyeva Dilbar Olimjon qizi

Umumta'lim maktabi o'quvchilarida ochiq javobli PISA topshiriqlarining produktiv fikrlashni rivojlantirishdagi o'rni 76
Xudayberdiyeva Muxayyo Karshiboyevna

Ta'limda interaktiv texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari 86
Xoshimova Maftunabonu Xoshimjon qizi

Yosh kelin-kuyovlarning nikoh orqali kutuvlari va psixologik farovonligining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari 91
To'lqinboyeva Mahliyoxon Valijon qizi

"Art-pedagogik qobiliyat" tushunchasining mohiyati va tarkibiy komponentlari 95
Bo'ltakova Roziya Xasan qizi

Pathogenetic Rationale for Personalized Therapy of Dentin Hypersensitivity in Patients With Erosive Tooth Lesions 99
Khusanbaeva Jasmin Shavkatovna, Zoirov Tulqin Elnazarovich

Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxona axborot tizimlarini tizimli tahlil qilish va modellashtirish 104
Ro'ziyev Bahromjon Rustam o'g'li

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining moliyaviy savodxonligini rivojlantirish mexanizmi va tarkibiy-funksional modeli 108
Berdimurotov Adxam Xayrulla o'g'li

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Raqamli ta'lim muhitida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kitobxonlik kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari 113
Umirova Marxabo Abdimannobovna

O'zbek EFL sinflarida talabalarning og'zaki nutq ravonligini mikrointeraktiv sikllar asosida rivojlantirish..... 116
X. S. Malikova

Sun'iy intellektning xorijiy til o'rganuvchilarga yordami: imkoniyatlar va amaliy mashg'ulotlar 120
Ashurova Dildora G'afurovna

Bo'lajak o'qituvchining kasbiy malakasi va aralash ta'lim sharoitidagi talablari..... 124
Baxtiyorova Maxliyo Baxrom qizi

Refleksiv texnologiyalar asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy-metodik tafakkurini rivojlantirish 127
Xo'janiyozova Gulhayo Ilhomovna

Boshlang'ich ta'limda hikoya janridagi matnlarni o'qitishda STREAM texnologiyasidan foydalanish..... 131
Ahmedova Munisa Xo'sinboy qizi

Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarni mustaqil hayot faoliyatiga tayyorlashning korreksion-pedagogik texnologiyasi 137
Jo'rayeva Gulmiraxon Zufarjon qizi

Developing EFL Students' Academic Writing Skills Through Self-Directed Learning Strategies..... 141
Kayumova Gulnoz Abduxalilovna

Ko'rishida nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilidagi kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyasi 147
Mavlonova Shaxzoda Turg'unovna

Developing English Communication Skills Among Students in Non-Philological Higher Education Institutions Through Task-Based Learning 151
Mirbabayeva Sabina Sobirjonovna

Indicators for Evaluating and Monitoring the Quality of Foreign Language Education in General Secondary Schools 158
Muxtarova Shafoatbonu Adham qizi

Fizika fanini o'qitishda talabalarning texnologik kompetensiyasi pedagogik tadqiqotning predmeti sifatida... 164
Raxmankulova Dilora Gulomovna

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida xalq og'zaki ijodi asosida bolalarning axloqiy fazilatlarini shakllantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalarning o'rni 169
Umurova Ma'rifat Yoshiyevna

Kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak muhandislarning loyihaviy-konstruktorlik faoliyatiga tayyorlash metodikasini ishlab chiqish 175
Uzokov Sherzod Xamidovich

Boshlang'ich ta'limda sun'iy intellekt va zamonaviy texnologiyalar: imkoniyatlar va istiqbollar..... 180
Akramhonova Maftunaxon Ma'murjon qizi

Mystical Images in the Poetry of Navoi and Mashrab 183
Mamasoliyeva Muslimaxon Alisher qizi

Oilaviy bolalar uylari tarbiyalanuvchilarini oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik asoslari: tajriba-sinov natijalarining tahlili..... 188
Muxamadiyev Xojiakbar Aslitdinovich

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda o'yin texnologiyalaridan foydalanish 193
Yuldasheva Shoxida Botirovna, Abdullayeva Qirmizi Jumatayevna

Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak pedagoglarning mustaqil o'rganish kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari 198
Mayliyeva Sadoqat Raximberganovna

Generative Artificial Intelligence in Foreign Language Education: Pedagogical Challenges and the Development of Communicative Competence 202
Latofat Zokir kizi Raximdjanova

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Международные модели подготовки будущих учителей к инклюзивному образованию: сравнительный анализ ключевых компонентов 210
Янкина Эмиля Адыловна

Психологические механизмы формирования читательской мотивации у младших школьников 216
Мадаминова Самидабону Умидбековна

O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi destruktiv ziddiyatlarning oldini olishning pedagogik-psixologik vositalari 222
Elbekova E'zoza Jamshid qizi

Badiiy asarni neyropedagogik tahlil materiali sifatida qo'llashning metodik asoslari 227
Shoyimova Shoira Sanakulovna

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetentligini takomillashtirish metodikasi 231
Toshturdiyeva Tursunoy Muhammadiyevna

YOSH KELIN-KUYOVLARNING NIKOH ORQALI KUTUVLARI VA PSIXOLOGIK FAROVONLIGINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

To'lqinboyeva Mahliyoxon Valijon qizi
Farg'ona davlat universiteti tadqiqotchisi
0009-0004-0532-4124

Annotatsiya: Mazkur maqolada yosh kelin-kuyovlarning nikohdan kutuvlari, ushbu kutuvlarning shakllanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar hamda kutuvlarning amalga oshishi yoki amalga oshmasligining yoshlarning ruhiy salomatligi va psixologik moslashuviga ta'siri tadqiq etilgan. Tadqiqotda globallashuv, raqamli texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlar va zamonaviy ijtimoiy tasavvurlarning yoshlarning oilaviy hayot haqidagi qarashlariga ta'siri yoritilgan.

Kalit so'zlar: Nikoh, oila, yosh kelin-kuyovlar, nikohdan kutuvlar, oilaviy qadriyatlar, psixologik moslashuv, ruhiy salomatlik, oilaviy munosabatlar, hissiy yaqinlik, oilaviy mas'uliyat, ijtimoiy tasavvurlar, nikoholdi tayyorgarlik, yoshlar psixologiyasi, oilaviy nizolar, psixologik maslahat.

Abstract: This article examines the expectations of young brides and grooms from marriage, the socio-psychological factors that influence the formation of these expectations, and the impact of the fulfillment or non-fulfillment of expectations on the mental health and psychological adjustment of young people. The study highlights the impact of globalization, digital technologies, social networks, and modern social perceptions on young people's views on family life.

Key words: Marriage, family, young brides and grooms, expectations from marriage, family values, psychological adjustment, mental health, family relationships, emotional intimacy, family responsibility, social perceptions, marriage preparation, youth psychology, family conflicts, psychological counseling.

Аннотация: В данной статье рассматриваются ожидания молодых женихов и невест от брака, социально-психологические факторы, влияющие на формирование этих ожиданий, а также влияние исполнения или неисполнения этих ожиданий на психическое здоровье и психологическую адаптацию молодежи. В исследовании освещается влияние глобализации, цифровых технологий, социальных сетей и современных социальных представлений на взгляды молодежи на семейную жизнь.

Ключевые слова: Брак, семья, молодые женихи и невесты, ожидания от брака, семейные ценности, психологическая адаптация, психическое здоровье, семейные отношения, эмоциональная близость, семейная ответственность, социальные представления, подготовка к браку, психология молодежи, семейные конфликты, психологическое консультирование.

KIRISH

So'nggi yillarda jamiyatda yoshlarning oila qurishga bo'lgan munosabati, nikoh haqidagi tasavvurlari va oilaviy qadriyatlari o'zgarib bormoqda. Globallashuv, raqamli texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlar va axborot oqimining kuchayishi yoshlarning nikohdan kutayotgan psixologik ehtiyojlari va ideallariga ta'sir ko'rsatmoqda. Ayrim hollarda esa yuqori kutuvlar bilan real oilaviy hayot o'rtasidagi nomutanosiblik emotsional zo'riqish, oilaviy nizolar va ruhiy tushkunlikka sabab bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 07.03.2022 yildagi PF-87-son[1] "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida oiladagi ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, yosh oilalarni psixologik qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining muhim yo'nalishi sifatida belgilangan [1].

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martdagi PF–81-son[2] "Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida oila institutini mustahkamlash, yoshlarning ijtimoiy-psixologik muammolarini barvaqt aniqlash va ularga amaliy yordam ko'rsatish vazifalari belgilab berilgan.

1 https://lex.uz/uz/docs/-5899498
2 https://lex.uz/ru/docs/-5884143

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Insoniyat taraqqiyoti tarixida oila jamiyatning eng muhim va barqaror ijtimoiy institutlaridan biri sifatida e'tirof etib kelinadi. Nikoh va yaqin qarindoshlik munosabatlariga asoslangan, o'zaro hurmat, mas'uliyat, mehr-muhabbat hamda ma'naviy qo'llab-quvvatlash tamoyillari bilan bog'langan kichik ijtimoiy guruh oila deb ataladi.

Oila nafaqat insonning biologik va ijtimoiy ehtiyojlarini qondiruvchi muhit, balki shaxsning ma'naviy-axloqiy kamoloti, ruhiy salomatligi va ijtimoiylashuvini ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi. Oila boshqa turdagi kichik ijtimoiy guruhlardan o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Oila shakllanish jarayonidayoq ikki insonning birgalikdagi hayoti, kelajagi va nasl davomiyligini ta'minlashga qaratilgan barqaror ijtimoiy tuzilma sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababdan u inson hayotining eng muhim qadriyatlaridan biri bo'lib, shaxsning o'zini namoyon etishi va ijtimoiy mavqeini belgilashida muhim o'rin egallaydi [4; 242].

Oilada shaxslararo munosabatlarning murakkab va serqirra tizimi shakllanadi. Oilaviy hayot davomida tarbiyaviy, psixologik, emotsional, iqtisodiy, kommunikativ va reproduktiv funksiyalar amalga oshiriladi. Mazkur funksiyalar oila a'zolarining o'zaro hamkorligi, mas'uliyati va bir-birini qo'llab-quvvatlashi orqali namoyon bo'lib, oilaviy munosabatlarning mazmunini belgilaydi. Oilaviy munosabatlar shaxs rivojlanishining muhim omili sifatida ijobiy yoki salbiy natijalarga olib kelishi mumkin. Oiladagi sog'lom psixologik muhit, o'zaro ishonch va hurmat insonda ijobiy fazilatlarning shakllanishiga, ruhiy barqarorlikning mustahkamlanishiga hamda barkamol shaxs sifatida kamol topishiga xizmat qiladi.

Niyazova va Madaliyeva ruhiy salomatlik va psixologik moslashuv o'rtasidagi bog'liqlikni tadqiq qilgan. Natijalariga ko'ra, yuqori darajadagi moslashuv chidamliligi ruhiy farovonlikni mustahkamlaydi. Bu shuni anglatadiki, shaxs qiyinchiliklarga qarshi turish va stressni boshqarish qobiliyatiga ega bo'lsa, uning ruhiy salomatligi va subyektiv hayotdan mamnunligi ham yuqori bo'ladi. Galyapina migratsiya va diaspora sharoitida yashovchi ruslar orasida moslashuv strategiyalari va ruhiy salomatlikni o'rganadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, shaxsning moslashuv strategiyasi (assimilyatsiya, integratsiya, separatsiya) va jamiyatdagi xavfsizlik hissi ruhiy farovonlik darajasiga sezilarli ta'sir qiladi. Bu yondashuv ruhiy salomatlikni individual tajriba, madaniy va ijtimoiy kontekst bilan birgalikda tushunishga imkon beradi [2].

Ruhiy salomatlik masalasi psixologiyada turli nazariy maktablar tomonidan keng o'rganilgan bo'lib, har bir yondashuv uni o'ziga xos mezonlar asosida izohlaydi. Stress, kognitiv jarayonlar, emotsional regulyatsiya va shaxsiy o'sish ruhiy barqarorlikning asosiy ko'rsatkichlari sifatida qaraladi. Zamonaviy tadqiqotlar ruhiy salomatlikni kompleks va ko'p omilli jarayon sifatida talqin qilayotgani ushbu masalaning dolzarbligini yanada tasdiqlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Nikoh munosabatlarining dastlabki bosqichida yosh er-xotinlarning bir-birlaridan va oilaviy hayotdan bo'lgan kutuvlari ularning kelgusi psixologik moslashuvini hamda umumiy ruhiy salomatligini belgilovchi eng muhim determinantlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, o'zbek va qirg'iz xalqlari kabi an'anaviy qadriyatlar va jamoaviylik madaniyati kuchli bo'lgan etnik guruhlarda yosh kelin-kuyovlarning shaxsiy kutuvlari faqatgina individual ehtiyojlar emas, balki jamiyat va mikromuhit tomonidan shakllantirilgan ijtimoiy tasavvurlar majmuasi bilan ham chambarchas bog'liqdir.

Tadqiqotimizning dastlabki bosqichida M. T. Isakova va M. V. To'lqinboyevalar tomonidan ishlab chiqilgan "Yosh kelin-kuyovlar kutuvlari amalga oshishi va oshmasligi" ijtimoiy-psixologik so'rovnomasidan foydalandik. Ushbu so'rovnoma ijtimoiy tasavvurlarning dinamikasini va ularning yoshlarning psixik holatiga ta'sirini chuqur o'rganishga xizmat qiladi. Tadqiqotimizga 140 nafar respondentlar jalb etildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur ijtimoiy-psixologik so'rovnoma yosh kelin-kuyovlarning nikohdan kutuvlari, ushbu kutuvlarning amalga oshishi yoki oshmasligi hamda ularning ruhiy salomatlikka ta'sirini aniqlash maqsadida ishlab chiqildi. So'rovnoma ikki asosiy blokdan iborat bo'lib, birinchi blokda nikohga oid kutuvlar, ikkinchi blokda esa ushbu kutuvlarning ruhiy holatga ta'siri o'rganildi. So'rovnoma 5 ballik shkala asosida baholanadi. Javoblarning bunday shaklda berilishi respondentlarning subyektiv baholarini aniqlash va ularni statistik jihatdan qayta ishlash imkonini beradi.

Shkala variantlari kutuv va holatlarning kuchlilik darajasini aniqlashga xizmat qiladi. Kuyov va kelinlarning nikohdan kutilmalari bir necha muhim konseptual yo'nalishlarni qamrab oladi. Ro'zg'or va uy yumushlarini taqsimlash borasidagi ijtimoiy tasavvurlar o'zbek-qirg'iz oilalaridagi an'anaviy gender rollari va zamonaviy tenglik tendensiyalari o'rtasidagi to'qnashuv nuqtasini ko'rsatadi. Munosabatlardagi emotsional yaqinlik, jinsiy hayotning ahamiyati hamda his-tuyg'ularning o'zaro tushunilishi yoshlarning psixologik farovonligini ta'minlovchi ichki resurslardir (1-jadval).

1-jadval: **"Yosh kelin-kuyovlar kutuvlari amalga oshishi va oshmasligi" ijtimoiy-psixologik so'rovnomaning nikohdan kutuvlar darajasi natijalari (n = 140).**

Nikohdan kutuvlar darajasi	%				%			
	O'zbek		Qirg'iz		O'zbek		Qirg'iz	
	Ayollar	Erkaklar	Ayollar	Erkaklar	Ayollar	Erkaklar	Ayollar	Erkaklar
Past darajadagi kutuvlar	0	7	2	0	0	5	1,43	0
O'rtacha darajadagi kutuvlar	8	14	9	8	6	10	6,43	6
Yuqori darajadagi kutuvlar	27	14	24	27	19	10	17,14	19

Mazkur jadval respondentlarning nikohdan kutuvlari darajasini past, o'rtacha va yuqori ko'rsatkichlar bo'yicha o'zbek va qirg'iz guruhlari kesimida aks ettirildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, tanlanmada nikohga nisbatan yuqori darajadagi kutuvlar ustunlik qilmoqda. Jadval natijalariga ko'ra, past darajadagi kutuvlar guruhiga mansub yoshlar nikohdan va turmush o'rtog'idan o'ta yuqori, idealistik narsalarni talab qilmaydilar. Ular oilaviy hayotning maishiy va hissiy qiyinchiliklariga oldindan ma'lum ma'noda tayyor bo'lib, munosabatlarda yuqori moslashuvchanlik va sharoitga ko'nikish namoyon etishadi.


Tadqiqot ma'lumotlariga ko'ra, o'zbek ayollari va qirg'iz erkaklari orasida bunday past talabchanlik bilan turmush qurayotgan birorta ham respondent (0 nafar va 0%) qayd etilmagan. Bu holat zamonaviy o'zbek ayolining ham, qirg'iz yigitining ham nikoh munosabatlariga mutlaqo befarq emasligini, ularning oiladan ma'lum bir aniq maqsad va umidlari borligini ko'rsatadi. Ushbu ko'rsatkich faqat o'zbek erkaklarining kichik bir qismida, ya'ni 7 nafarda (umumiy guruhga nisbatan 5% ni tashkil etadi) va qirg'iz ayollarida 2 nafarda (umumiy guruhga nisbatan 1,43% ni tashkil etadi) kuzatilgan. Psixologik nuqtai nazardan, bu darajadagi yoshlar oilaviy kelishmovchiliklarda o'z hissiyotlarini ichga yutishga, o'z ehtiyojlarini ochiq aytmaslikka moyil bo'ladilar. Ularning ruhiy salomatligiga munosabatlarning ta'siri minimal bo'lib, kutuvlari amalga oshmagan taqdirda ham ichki xotirjamlikni va stressga chidamlilikni saqlab qola oladilar.

O'rtacha darajadagi kutuvlar oilaviy hayotga eng sog'lom va realistik yondashuvni ifodalaydi. Bu guruhdagi yoshlar turmush o'rtog'ini ideallashtirmaydilar, ayni paytda undan o'zaro hurmat, asosiy uy yumushlarida ko'mak va oddiy hissiy yaqinlikni kutishadi. Jadval natijalarida ushbu mo'tadil yondashuv o'zbek erkaklari orasida 14 nafarni tashkil etib, umumiy guruh ichida eng yuqori - 10%lik ko'rsatkichni qayd etgan. Bu ko'rsatkich qirg'iz ayollarida 9 nafar (6,43%), qirg'iz erkaklarida 8 nafar (6%) va o'zbek ayollarida ham 8 nafarni tashkil etib, guruhlararo deyarli teng muvozanatda taqsimlangan.

Toifaga mansub yosh kelin-kuyovlar oilada muammolar yoki dunyoqarashlar nomuvofiqligi kelib chiqqanda buni fojia deb hisoblamaydilar, balki masalani ochiq muhokama orqali hal qilishga intiladilar. Ularning ruhiy salomatligiga nikohdagi inqirozlar epizodik, ya'ni vaqtinchalik ta'sir ko'rsatadi; tushunmovchiliklar paytida biroz xafagarchilik yoki xavotir uyg'onsa-da, bu ularning umumiy ruhiy muvozanatini to'liq izdan chiqarib yubormaydi va munosabatlarni barbod qilish darajasiga yetib bormaydi.

Yuqori darajadagi kutuvlar guruhi har ikki millat vakillarida ham mutlaq ustunlikni tashkil etishi bilan tadqiqotning eng diqqatga sazovor va tashvishli qismidir. Ayniqsa, o'zbek ayollari 27 nafar ko'rsatkich bilan etnik guruhida yetakchilik qilayotgan bo'lsa, qirg'iz yoshlari orasida ham erkaklar 27 nafar (19%), ayollar esa 24 nafar (17,14%) ko'rsatkich bilan munosabatlarda maksimal darajada yuqori talablar bilan yashayotganliklarini namoyon qilganlar.

O'zbek erkaklarida esa bu yuqori ko'rsatkich biroz pastroq, ya'ni 14 nafarni tashkil etadi. Bu guruhga kiruvchi yoshlar turmush o'rtog'idan cheksiz e'tibor, har bir his-tuyg'uni so'zsiz tushunish, maishiy hayotda mukammal hamkorlik va begona odamlar davrasida o'zini mutlaq qo'llab-quvvatlashini talab qiladilar. Ularning ongi jamiyat va ijtimoiy tarmoqlar tomonidan singdirilgan "ideal oila" va "ideal juftlik" stereotiplari bilan band bo'ladi. Hayotiy reallik kutilgan orzularga mos kelmagan ilk kunlardanoq yoshlarda kuchli hafsalasizlik, chuqur xafagarchilik va agressiv ichki norozilik kayfiyati boshlanadi.



1-rasm: **"Yosh kelin-kuyovlar kutuvlari amalga oshishi va oshmasligi" ijtimoiy-psixologik so'rovnomaning nikohdan kutuvlar darajasi natijalari diagramma ko'rinishida (n = 140).**

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ko'pincha nikoh maslahatchilari va o'qituvchilari nikohga nisbatan yuqori kutilmalar bo'lishi nikoh munosabatlariga zarar yetkazadi, deb hisoblaydilar. Ularning fikricha, yuqori kutilmalarga ega bo'lgan shaxslar, nikoh hayotining haqiqatlari ularning ideallariga mos kelmaganda, umidsizlikka tushib qoladilar. Qizig'i shundaki, yuqori kutilmalar salbiy ta'sir ko'rsatadi, degan taxminni tasdiqlashga urinib ko'rgan tadqiqotlar turlicha natijalarni bergan. Ba'zi tadqiqotlar nikohdagi kutilmalar juda yuqori bo'lganda juftliklar norozilik va ajralish xavfiga ko'proq duch kelishini ko'rsatgan. Boshqa tadqiqotlar esa, o'z nikohidan katta narsalarni kutgan odamlar, aslida, nikohdan ham katta narsalarni olishga moyil bo'lishini ko'rsatgan. Baucom shunday degan: "Standartlar qanday bo'lishidan qat'i nazar, agar ular munosabatda bajarilmasa, shaxs turli yo'llar bilan munosabatdagi tanglikni namoyon etadi."

Karneyning tadqiqotida yuqori kutilmalarga ega bo'lgan shaxslar o'z nikohidan eng ko'p qoniqish hosil qilgan, agar ular ijobiy atributiv uslubga ega bo'lsalar, ya'ni nikohdagi voqealarni ijobiy talqin qilish qobiliyati va muammo yechish jarayonida ijobiy xatti-harakatlarni ko'rsatgan bo'lsalar. Yuqori kutilmalarga, lekin salbiy atributiv uslubga ega bo'lganlar, ya'ni nikohdagi voqealarni salbiy talqin qilishga moyillar va muhokama paytida salbiy xatti-harakatlarni, masalan, tanqid qilishni ko'rsatganlar o'z nikohlaridan kamroq qoniqish bildirganlar. Nikohda yuzaga keladigan eng keng tarqalgan kutuvlar: hissiy yaqinlik, muloqot, sevgi va jismoniy yaqinlik, qo'llab-quvvatlash, umumiy qadriyatlar va maqsadlar, sifatli vaqt, moliyaviy mas'uliyat hamda uy vazifalarining adolatli taqsimlanishi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Андреева Т.А. Семейная психология. - М., 2004. - 242 с.
2. Аракелова М.П., Богданов С.В. Семейная политика в странах Балтии.// Вестн.Моск.ун-та. Сер.21. Управление (государство и общество). 2010. № 3 С. 147-165.
3. Ayol huquqi va erkinliklari /TDYUI.Toshkent: Adolat, 2002.-234 b.
4. Akramova F.A., Abdullayeva R.M. Sharq mutafakkirlarining oila xususidagi qarashlari. T.: "Shams ASA", 2002. 25 b.
5. Akramova F.A., Abdullayeva R.M. Oilaviy hayotni o'rganishga oid psixologik testlar. T.: "Shams ASA", 2002. 58 b.
6. Акрамова Ф.А. Ўзбекистонда оилавий психологик хизматнинг ижтимоий-психологик муаммолари. Монография. -Т.: ООО "NORI" МЧЖ, 2019. - 186 б.
7. Антонов А.И., Сорокин С.А. Судьба семьи в России XXI века // - М.: 2000 (гл.6 "Семья и здоровье")158 с.
8. Андреева Т.А. Семейная психология. - М., 2004. - 242 с.
9. Баротов Ш.Р. и др. Психологическая служба образования: от теории к практике. (учебно-методическое пособие). - Бухара: Дурдона, 2017. -172 с.
10. Баротов Ш.Р. Психологик хизмат: Магистрлар учун дарслик. -Т.: "Наврўз" нашриёти, 2018. - 344 б.
11. Бусыгин В.П., Кулаков Д.А. Сравнительная эффективность семейных пособий в странах Европы// Мир экономики и управления. 2016. Т.16, № 3. С.42-56
12. Bekmurodov. M. Qarindoshlik, nikoh va oila // Sog'lom avlod uchun-2004.6-12 betlar.

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi
13.00.02 Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha)
13.00.07 Ta’limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov
Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov
Musahhih: Alibek Zokirov
Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №9(4)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.